

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB Olish.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH	189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI	200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich	
RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE	204
Dilbar Ramazonova	
"TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	209
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchov	
RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	216
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI HOLATI	223
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIVAVIY TAHLIL AMALIYOTINING MUAMMOLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	232
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
SURXONDARYODA YASHIL TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	240
Mamatov Sardor, Rashidova Nargiza	
XORIJIY MAMLAKATLARDA UY-JOY NARXLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH TAJRIBASI... ..	246
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TOMORQA XO'JALIKLARI FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI	252
U.U. Nurullayev	
ECONOMIC EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN WAREHOUSE OPERATIONS.....	257
Abdulazizova Shakhrixoda Azizbek kizi	
IXTISOSLASHUV VA KONSENTRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA SUT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING SAMARADORLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	262
Sherbekova Ariuxan Rashidovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITAL TARKIBINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISH IMKONIYATLARIGA TA'SIRI TAHLILI.....	266
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
ОПТИМИЗАЦИЯ РЕЖИМОВ ВЫРАБОТКИ КИСЛОРОДА И СЖАТОГО ВОЗДУХА ДЛЯ СНИЖЕНИЯ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЧЕРНОВОЙ МЕДИ.....	271
T.C. Kamalov, X.T. Tashева, D.A. Ishanova, U.I. Ablyayev	
SOLIQ SIYOSATINING INVESTITSION FAOLLIKKA TA'SIRI.....	279
Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Zarif Oripovich Axrorov	
SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI OMMALASHTIRISH VA JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	284
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA RISKLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Tuopova Nigora Xolmurod qizi	
VIRTUAL REALLIK SAHNALARIDA KO'P ISHTIROKCHILI HOLISTIK HARAKATNI REAL VAQT REJIMIDA KUZATISH VA KO'P AGENTLI SKELETNI RETARGETING QILISH.....	297
Abdusamatov Abdurasul Abduqahhor o'g'li	
O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORIDA FINTEX VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA INVESTITSIYA FAOLLIGI.....	304
Karimova Nurjahan Olim qizi	
MAHALLIY AMALIYOTDA MOLIVAVIY..... HISOBOTNI SOXTALASHTIRISHNING ENG KENG TARQALGAN SHAKLLARINI TAHLIL QILISH	311
Xusanov Shuxrat Burxanovich	
TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O'TKAZMALARI BILAN BOG'LIQ MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH YO'LLARI.....	318
Eshmamatov Davlat Nuriddinovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY TAHLILI	325
Buriyev Sherzod Ahadovich	



TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYA INVESTITSİYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING OMILLARI VA MEXANIZMLARI	329
--	-----

Sarimsaqov Sherzod Xamidovich

ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDa KORXONALARNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISH KONSEPSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	336
---	-----

Rasulov Baxtiyor Bahodirovich

MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYANING YANGI BOSQICHLARI.....	342
--	-----

Abduraxmonov Shohruh, Xalmatjanov Farhod



MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYANING YANGI BOSQICHLARI

Abduraxmonov Shohruh Sherzod o'g'li

Alfraganus universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi 3-kurs talabasi

Xalmatjanov Farhod Maxamatjanovich

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning zamonaviy rivojlanish bosqichlari, uning jahon iqtisodiyotidagi o'rni hamda davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot, transport-logistika infratuzilmasi va investitsiyaviy hamkorlikning integratsiya jarayonlariga ta'siri ilmiy jihatdan yoritiladi. Markaziy Osiyo davlatlari misolida mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari hamda O'zbekistonning integratsiya jarayonlaridagi strategik o'rni baholanadi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiy integratsiya, iqtisodiy hamkorlik, raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot, investitsiyaviy hamkorlik, transport-logistika infratuzilmasi, tashqi savdo, Markaziy Osiyo, barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sish.

Аннотация: Исследуются современные этапы развития региональной экономической интеграции, её роль в мировой экономике и значение для расширения экономического сотрудничества между государствами. Особое внимание уделяется влиянию цифровой трансформации, зелёной экономики, транспортно-логистической инфраструктуры и инвестиционного сотрудничества на интеграционные процессы. На примере стран Центральной Азии оцениваются перспективы развития регионального экономического сотрудничества и стратегическая роль Узбекистана в интеграционных процессах.

Ключевые слова: региональная экономическая интеграция, экономическое сотрудничество, цифровая трансформация, зелёная экономика, инвестиционное сотрудничество, транспортно-логистическая инфраструктура, внешняя торговля, Центральная Азия, устойчивое развитие, экономический рост.

Abstract: The contemporary stages of regional economic integration, its role in the global economy, and its significance for expanding economic cooperation among countries are examined. Particular attention is given to the impact of digital transformation, the green economy, transport and logistics infrastructure, and investment cooperation on integration processes. Using Central Asian countries as an example, the prospects for developing regional economic cooperation and Uzbekistan's strategic role in regional integration processes are assessed.

Keywords: regional economic integration, economic cooperation, digital transformation, green economy, investment cooperation, transport and logistics infrastructure, foreign trade, Central Asia, sustainable development, economic growth.

KIRISH

XXI asrda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan geosiyosiy va geoiqtisodiy o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda global ta'minot zanjirlarining qayta shakllanishi mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlariga yangi mazmun bag'ishlamoqda. Endilikda integratsiya nafaqat bo'xona to'siqlarini kamaytirish yoki erkin savdo hududlarini shakllantirish, balki transport-logistika tizimlarini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish, investitsion hamkorlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda dunyoda yuzaga kelgan pandemiya oqibatlarini, xalqaro logistika zanjirlaridagi o'zgarishlar hamda geosiyosiy jarayonlarning jadallashuvi davlatlarni mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirishga undadi. Natijada iqtisodiy integratsiya yangi bosqichga ko'tarilib, savdo, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport va raqamli infratuzilma yo'nalishlarida hamkorlikni chuqurlashtirish ustuvor vazifaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida ham ochiq va pragmatik tashqi iqtisodiy siyosat yuritilishi natijasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada kengaydi. Mamlakatimizda qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, transport yo'laklarini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish hamda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy



iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, eksport hajmini ko'paytirish, xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish, hududlararo iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va Markaziy Osiyoda o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.¹ Mazkur strategiya mamlakatning mintaqaviy iqtisodiy integratsiyadagi faol ishtirokini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Markaziy Osiyo – umumiy taraqqiyot va farovonlik makoni" tamoyili asosida mintaqada davlatlari bilan savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport-kommunikatsiya va investitsiya yo'nalishlaridagi hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi. Bu esa nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, balki mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, elektron tijoratning kengayishi, "yashil" iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning yangi bosqichlarini belgilovchi asosiy omillarga aylanmoqda. Shu sababli mazkur mavzuni ilmiy jihatdan tadqiq etish, mavjud tendensiyalarni tahlil qilish va O'zbekistonning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi istiqbollarni baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya nazariyasi va uning amaliy rivojlanish bosqichlari iqtisodiyot fanida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mazkur masala bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda an'anaviy savdo integratsiyasi bilan bir qatorda raqamli iqtisodiyot, yashil transformatsiya, global qiymat zanjirlari va logistika tizimlarining rivojlanishi integratsiyaning yangi omillari sifatida e'tirof etilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilinayotgan tahliliy hisobotlarda iqtisodiy integratsiyaning samaradorligi mamlakatlar o'rtasidagi savdo hajmining oshishi bilan cheklanmasligi, balki investitsiyalar oqimi, texnologiyalar transferi, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va inson kapitalining rivojlanishiga ko'rsatayotgan ta'siri orqali ham baholanishi ta'kidlanadi. Jahon banki mutaxassislari mintaqalararo transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri ekanligini qayd etganlar.²

Osiyo Taraqqiyot Banki ekspertlarining tadqiqotlarida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida transport yo'laklarini modernizatsiya qilish, bo'xona tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamli savdo platformalarini joriy etish mintaqaviy integratsiyaning chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida baholanadi. Hisobotlarda iqtisodiy hamkorlikning yangi modeli o'zaro bog'langan infratuzilma, energetika va raqamli xizmatlar orqali shakllanishi qayd etilgan.³

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan olib borilgan tahlillarda esa jahon iqtisodiyotidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy o'zgarishlar sharoitida mintaqaviy integratsiya iqtisodiyotlarning tashqi omillarga moslashuvchanligini oshirish vositasi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish zanjirlarini diversifikatsiya qilish va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil sifatida ko'rsatilgan.⁴

So'nggi ilmiy maqolalarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mintaqaviy integratsiyaning yangi bosqichini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanmoqda. Elektron tijorat, sun'iy intellekt, raqamli to'lov tizimlari va elektron bo'xona xizmatlarining keng qo'llanilishi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni jadallashtirib, transaksion xarajatlarni kamaytirishi ilmiy jihatdan asoslangan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida ham mamlakatning Markaziy Osiyodagi iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi o'rni keng yoritilgan. Tadqiqotlarda tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, eksportni diversifikatsiya qilish hamda xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillari sifatida e'tirof etiladi.

Bundani tashqari, so'nggi yillardagi ilmiy adabiyotlarda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarining mintaqaviy integratsiyaga ta'siri alohida yo'nalish sifatida o'rganilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, uglerod chiqindilarini kamaytirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish hamda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish iqtisodiy hamkorlikning yangi sifat bosqichiga o'tishda muhim omillar sifatida baholanmoqda.⁵

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaga oid mavjud tadqiqotlarda savdo va investitsiya munosabatlari bilan bir qatorda raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot, logistika koridorlari va

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2 World Bank. *Global Economic Prospects*. – Washington, DC: World Bank, 2025.

3 Asian Development Bank. *CAREC Development Report 2024*. – Manila: Asian Development Bank, 2024.

4 International Monetary Fund. *Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia*. – Washington, DC: IMF, 2024.

5 United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). *Trade and Development Report 2024*. – Geneva: United Nations, 2024.

geoiqtisodiy o'zgarishlarning o'zaro uyg'un ta'sirini kompleks baholash yo'nalishlari ham tobora muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois mazkur tadqiqotda aynan ushbu omillarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsiya jarayonlariga ta'siri tizimli ravishda tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning yangi bosqichlarini o'rganishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda statistik ma'lumotlarni umimlashtirish usullari qo'llanildi. Mintaqaviy integratsiya jarayonlarini baholashda O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining savdo-iqtisodiy hamkorligi, investitsiya oqimlari hamda transport-logistika ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Shuningdek, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB), Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar hamda tahliliy hisobotlardan foydalanildi. Olingan natijalar asosida mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda Markaziy Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari sezilarli darajada jadallashgan. Bunda O'zbekistonning ochiq tashqi iqtisodiy siyosati, qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar muhim omil bo'ldi.

2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 65,9 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan 26,9 mlrd dollar eksport va 39,0 mlrd dollar import hissasiga to'g'ri kelgan. Eksport hajmi 2023-yilga nisbatan 8,4 % ga oshgan bo'lib, bu mamlakatning xalqaro savdo aloqalari kengayib borayotganini ko'rsatadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi esa 11,9 mlrd AQSH dollariga yetgani mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning investitsion jozibadorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar–avgust oylarida O'zbekiston 188 ta davlat bilan tashqi savdo aloqalarini amalga oshirgan va tashqi savdo aylanmasi 42,7 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Ushbu davrda eksport hajmi 17,3 mlrd dollar, import esa 25,4 mlrd dollar bo'lgan. O'zbekistonning eng yirik savdo hamkorlari Xitoy (18,8 %), Rossiya (18,2 %), Qozog'iston (6,2 %), Turkiya (4,6 %) va Janubiy Koreya (3,1 %) bo'lgan.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda. 2024-yilning yanvar–sentabr oylarida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo hajmi 5,5 mlrd AQSH dollariga yetib, umumiy tashqi savdo aylanmasining 10,3 % ini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichning asosiy qismi Qozog'iston (61 %), Turkmaniston (17 %), Qirg'iz Respublikasi (12 %) va Tojikiston (10 %) bilan savdo hissasiga to'g'ri kelgan. Mazkur natijalar mintaq ichidagi iqtisodiy aloqalar tobora mustahkamlanayotganidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari (2022–2025-yillar)⁶

Ko'rsatkich	2022	2023	2024	2025
Tashqi savdo aylanmasi, mlrd AQSH dollari	50,0	63,5	67,2	81,2
Eksport, mlrd AQSH dollari	19,3	24,9	27,3	33,8
Import, mlrd AQSH dollari	30,7	38,7	40,0	47,4
Savdo saldos, mlrd AQSH dollari	-11,4	-13,8	-12,7	-13,5
O'sish sur'ati (tashqi savdo), %	18,6	27,0	5,8	20,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2022–2025-yillar davomida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 50,0 mlrd AQSH dollaridan 81,2 mlrd AQSH dollariga yetib, qariyb 62,4 % ga oshgan. Ayniqsa, 2025-yilda tashqi savdo hajmi 2024-yilga nisbatan 20,7 % ga o'sgan. Eksport hajmi 33,8 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 24 % ga ko'paygan, import esa 47,4 mlrd AQSH dollariga yetgan. Bu ko'rsatkichlar

6 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarida faollashib borayotganini hamda xalqaro savdo aloqalari kengayayotganini tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi (2022–2025-yillar)⁷

2022–2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida barqaror o'sish kuzatildi. 2022-yilda tashqi savdo hajmi 50,0 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 63,5 mlrd dollarga, 2024-yilda 67,2 mlrd dollarga, 2025-yilda esa 81,2 mlrd AQSH dollariga yetdi. Tahlil natijalariga ko'ra, to'rt yil davomida tashqi savdo hajmi 31,2 mlrd AQSH dollariga yoki qariyb 62,4 % ga oshgan. Ushbu o'sish O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi faolligi, eksport salohiyatining kengayishi hamda xalqaro savdo va investitsion aloqalarning rivojlanishi bilan izohlanadi.⁸

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning yangi bosqichi nafaqat savdo hajmining ortishi, balki transport koridorlarini rivojlantirish, investitsiyalarni ko'paytirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va raqamli iqtisodiyotni joriy etish bilan ham tavsiflanmoqda. Bu jarayonlar O'zbekistonning mintaqadagi iqtisodiy mavqeini mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish hamda global qiymat zanjirlariga chuqurroq integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng muhim rivojlanish omillaridan biriga aylanmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi va xalqaro investitsiyalar oqimining ortishi integratsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan ochiq tashqi iqtisodiy siyosat, qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va mintaqaviy transport koridorlarini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar mamlakatning mintaqadagi iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2022–2025-yillarda O'zbekistonning tashqi savdo hajmi va eksport ko'rsatkichlari izchil o'sgan. Bu esa mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalarining kengayishi, sanoat kooperatsiyasi va investitsion hamkorlikning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo va bojxona tartib-taomillarini yanada soddalashtirish hamda raqamlashtirish maqsadga muvofiq.

Xalqaro transport va logistika koridorlarini rivojlantirish orqali eksport salohiyatini oshirish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat va elektron bojxona tizimlarini keng joriy etish orqali iqtisodiy integratsiya samaradorligini oshirish lozim.

Qo'shma investitsiya loyihalari va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadga muvofiq.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining 2022–2025-yillardagi tashqi savdo ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2025.



“Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini mintaqaviy hamkorlik loyihalariga keng tatbiq etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash bo’yicha qo’shma dasturlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta’lim tashkilotlari va biznes subyektlari o’rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning yangi bosqichlari O’zbekistonning barqaror iqtisodiy o’sishini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish, investitsiyalarni jalb etish hamda xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo’nalishda tizimli islohotlarni izchil davom ettirish mamlakatning global iqtisodiy makondagi o’rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF–60-son Farmoni.: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. World Bank. *Global Economic Prospects*. – Washington, DC: World Bank, 2025.
3. Asian Development Bank. *CAREC Development Report 2024*. – Manila: Asian Development Bank, 2024.
4. International Monetary Fund. *Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia*. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2024.
5. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). *Trade and Development Report 2024*. – Geneva: United Nations, 2024.
6. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi. *O’zbekiston Respublikasining 2022–2025-yillardagi tashqi savdo ko’rsatkichlari bo’yicha rasmiy statistik ma’lumotlar*. – Toshkent, 2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100